

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 3-son

VOLUME 7 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **SODIKOV AKMAL SHAVKAT O'G'LI**
Norma ijodkorligi jarayonini takomillashtirish-
ning istiqbolli yo'nalishlari
- 17 **MUSTAFAQULOV DILSHOD
SALOMOVICH**
Huquq prinsiplari va uning huquqiy tizimda
tutgan o'рни

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 25 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
O'zbekiston Respublikasi ekologiya sohasidagi
davlat boshqaruvida davlat-xususiy sheriklikni
qo'llashning ayrim masalalari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 39 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ**
Реформирование процесса защиты
диссертаций в юридической науке
как императив развития правовой системы
Узбекистана
- 49 **MAMANAZAROV SARDOR
SHUXRATOVICH**
BIG DATA tushunchasi va huquqiy tabiati
- 57 **МАХАМАДХУЖАЕВА МУНИСАХОН
НЕЪМАТХУЖАЕВНА**
Особенности цифрового гражданского
оборота и защиты цифровых прав

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 64 **ЕРНИЯЗОВ ИСЛАМ РУСЛАНОВИЧ**
Взаимодействие международных строитель-
ных контрактов и договоров об инвестициях:
возможности для гармонизации коммер-
ческих и общественных интересов
- 76 **ABDURASULOVA QUMRINISA
RAIMKULOVNA**
BURANOVA RAZIYA YERMAHAMED QIZI
Jinoyatchilikni prognoz qilish va uni amalga
oshirish metodlari
- 88 **HAKIMOV KOMIL BAXTIYAROVICH**
Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib
qasddan odam o'ldirish jinoyati tarkibini
aniqlash va kvalifikatsiya qilish masalalari
- 98 **BERDIALIYEV BAXTIYOR ERKINOVICH**
Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning
sabablariga doir ilmiy yondashuvlar
- 106 **ISMAILOV AHMAD ISMAILOVICH**
Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish
darajasiga yetkazish jinoyatini sodir etgan
shaxslarning kriminologik tavsifi
- 114 **SHONAZAROV ABDOVALI
SHONAZAROVICH**
Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli
qog'ozlarni soxtalashtirish, ko'chirilgan
dastxatlar, hujjatlarning o'zgartirilganligi
bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash
- 121 **ATANIYAZOV JASURBEK
KURBANBAYEVICH**
Jinoiy javobgarlikdan ozod etishda
javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi
asosi: muammo va yechimlar

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

131 **SAYFULLAYEV BAHODIR
BAXROMOVICH**

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanayotgan jinoyat ishlarida himoyachining ishtirokini takomillashtirish

140 **ЭРКАБОВЕВ АЗИЗБЕК АСИЛБЕКОВИЧ**

Интеграция Республики Узбекистан в глобальную систему контроля за наркотиками

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.3./NNHN3157>
UDC: 347.1:004.6(045)(575.1)

BIG DATA TUSHUNCHASI VA HUQUQIY TABIATI

Mamanazarov Sardor Shuxratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kadrlar bo'limi boshlig'i
ORCID: 0009-0004-5855-6498
e-mail: s.mamanazarov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Big Data tushunchasi, kelib chiqishi, olimlarning fikrlari, Big Dataning huquqiy tabiati, xususiyatlari tavsifi va tahlili olib borilgan. Big Dataning huquqiy tabiati va maqomiga oid bo'lgan bir qancha yetakchi nazariyalar va konsepsiyalar o'rganilgan. Axborot mulki nazariyasi (Information Property Theory (IPT), ma'lumotlarni to'plash (Datafication) nazariyalarining mazmuni ochib berilgan. Big Dataning huquqiy maqomini belgilashda uning qiymati ahamiyati yoritilgan. Big Data moddiy qiymatini tushunish va tan olishda muhim bo'lgan bir nechta nazariya va konsepsiyalarga to'xtalangan. Egalik Big Dataga bo'lgan mulk huquqining fundamental jihati (elementi) sifatida ko'rib, ma'lumotlarga egalik huquqini aniqlashda turli yondashuvlarni taklif qiluvchi bir qancha nazariya va konsepsiyalar tahlil etilgan. Xususan, o'zlashtirish nazariyasi, kirish va nazorat konsepsiyalari mazmuni ochib berilgan. Ma'lumotlarning hajmi, xilma-xilligi va ishlov berish tezligi kabi o'ziga xos xususiyatlari sababli Big Data huquqiy himoya sohasida yangi muammo va masalalarni vujudga keltiradi. Ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar faoliyati tahlil etilib, Big Dataga bo'lgan mulkiy huquqlarni o'tkazish va uning huquqiy oqibatlarini bo'yicha nazariya va konsepsiyalar qiyosiy o'rganilgan. O'zbekistonda Big Dataning huquqiy maqomi va uning huquqiy asoslari yoritilib, mavjud qonunchilik tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Big Data, Datafication, axborot mulki nazariyasi, moddiy qiymat, egalik qilish, o'tkazish, mulk huquqi, mutlaq huquq, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti.

ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ ПРИРОДА БОЛЬШИХ ДАННЫХ (BIG DATA)

Маманазаров Сардор Шухратович,
начальник отдела кадров
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье описывается и анализируется понятие больших данных (Big Data), происхождение, мнения учёных, правовая природа и характеристики. Исследуются несколько ведущих теорий и концепций относительно правовой природы и статуса Big Data. Раскрывается содержание теории информационных свойств (ТИС) и теории датафикации. Подчёркнута важность определения правового статуса Big Data в их значении. Затронуты несколько теорий и концепций, важных для понимания и признания материальной ценности Big Data. Право собственности рассматривается как фундаментальный аспект (элемент) права собственности на Big Data, анализируются несколько теорий и концепций, предлагающих различные подходы к определению права собственности на Big Data. В частности, раскрывается содержание теории понятий присвоения, доступа и контроля. В силу своих специфических характеристик, таких как объём, разнообразие и скорость обработки данных, большие данные создают новые проблемы и вопросы в сфере правовой защиты. Проанализирована деятельность международных организаций, занимающихся вопросами правовой защиты данных. Сравнительно исследуются теории и концепции перехода прав

собственности на Big Data и правовые последствия. Освещён правовой статус Big Data в Узбекистане и их правовые основы, а также проанализировано действующее законодательство.

Ключевые слова: Big Data (большие данные), датафикация, теория информационной собственности, материальная ценность, право владения, передача, право собственности, абсолютное право, Международная организация по стандартизации.

THE CONCEPT AND LEGAL NATURE OF BIG DATA

Mamanazarov Sardor Shukhratovich,

Head of HR Department of Tashkent State University of Law

Abstract. This article describes and analyzes the concept of Big Data, its origin, the opinions of scientists, its legal nature, and its characteristics. Several leading theories and concepts regarding the legal nature and status of Big Data are explored. The content of the theory of information properties (IPT) and the theory of datafication is revealed. The importance of Big Data in determining its legal status is emphasized. Several theories and concepts that are important for understanding and recognizing the material value of Big Data are touched upon. Ownership is considered a fundamental aspect (element) of Big Data ownership, and several theories and concepts are analyzed that offer different approaches to determining the ownership of data. In particular, the content of the theory of the concepts of appropriation, access, and control is revealed. Due to its specific characteristics, such as the volume, variety, and speed of data processing, Big Data creates new problems and issues in the field of legal protection. The activities of international organizations dealing with legal data protection issues are analyzed. The theories and concepts of the transfer of ownership of Big Data and its legal consequences are comparatively studied. The legal status of Big Data in Uzbekistan and its legal framework are highlighted, and the current legislation is analyzed.

Keywords: Big Data, datafication, information property theory, material value, possession, transfer, ownership, absolute rights, International Organization for Standardization.

Kirish

Hozirgi axborot asrida ma'lumotlar (data) eng qimmatli manbalardan biriga aylandi. Big Data nomi bilan ma'lum bo'lgan katta miqdordagi ma'lumotlarga ishlov berish va tahlil qilish texnologiyalarining rivojlanishi huquq sohasida yangi muammo va masalalarni keltirib chiqardi. Big Data iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun yangi imkoniyatlarini ochadi, biroq shu bilan birga, ma'lumotlar (data) subyektlarining huquqlarini himoya qilish, ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish uchun javobgarlik va ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida axloqiy prinsiplarni ta'minlash bo'yicha savollar tug'iladi. Innovatsion texnologiyalarni faol joriy etishga intilayotgan O'zbekiston sharoitida Big Dataning huquqiy maqomi va unga bo'lgan mulkiy huquqlarning qonuniy himoyasini ta'min-

lashga oid muammolar dolzarb hisoblanib, tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalar tahlil qilindi. Turli mamlakatlarda Big Dataning huquqiy tartibga solinishi va huquqiy yondashuvlarning qiyosiy-huquqiy muhokamasi olib borildi. Big Data huquqiy maqomi va unga bo'lgan mulkiy huquqlar bo'yicha yetakchi nazariya va konsepsiyalar qiyosan tahlil etildi. Big Dataga oid masalalarni hal qilgan sud ishlari va huquqiy pretsedentlar tahlil qilindi. Big Data bilan ishlashda o'xshashliklar, farqlar va yangi tendensiyalarni aniqlash uchun turli yurisdiksiyalardagi huquqiy asoslar va qoidalar taqqoslandi. Big Data sohasida ilg'or tashkilotlar amal qiladigan standartlar va eng yaxshi amaliyotlar o'rganildi.

Tadqiqot natijalari

“Big Data” atamasi “katta ma’lumotlar” degan ma’noni bildirib, uni birinchilardan bo’lib 2008-yilda “Nature” jurnali muharriri amerikalik Klifford Linch rasman ishlatgan [1]. U dunyoda axborot hajmlarining jadal sur’atlarda o’sishi haqida gapirib, faqatgina yangi vositalar va yanada ilg’or texnologiyalar ularni o’zlashtirishga yordam berishini ta’kidlagan.

Big Data tushunchasi yuqori hajmli, xilma-xil bo’lgan va to’planishning yuqori tezligi bilan ajralib turadigan ma’lumotlar jamlanmasini qamrab oladi. Big Data datchiklar (sensorlar), ijtimoiy tarmoq (social media), internet-trafik, mobil qurilmalar va boshqa turli manbalardan to’plangan ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Big Data hajm, xilma-xillik, tezlik, ishonchlilik (ma’lumotlarning haqiqiyliigi), shuningdek, ma’lumotlarni tahlil qilish va ishlov berishning murakkabligi kabi xususiyatlarni o’z ichiga oladi.

Big Datani turlicha tushunish mumkin bo’lib, u holat va foydalanadigan ma’lumotlarga qarab farq qilishi mumkin. Ushbu maqola doirasida esa Big Data deganda qimmatli ma’lumotlarni olish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun to’plash, saqlash, ishlov berish va tahlil qilishning maxsus usul va vositalarini talab etuvchi katta hajmdagi ma’lumotlar tushuniladi.

Huquqshunos olimlar Big Dataning huquqiy tabiati va unga egalik qilish bo’yicha chuqur bahs va munozaralar olib borishadi.

1. *Ma’lumotlar mulki nazariyasi (Data Property Theory)*. Ushbu nazariya ma’lumotlarni, shu jumladan, Big Datani mulk obyekti sifatida ko’radi [2]. U ma’lumotlarga egalik qilish, foydalanish va o’tkazish shartnoma va bitimlar orqali amalga oshiriladigan huquq tizimining an’anaviy prinsiplariga asoslanadi. Ushbu nazariya tarafdorlari ma’lumotlar egalari ularni nazorat qilish va tijoratlashtirish huquqiga ega, huquqiy himoya ularning eksklyuziv huquqlarini kafolatlashi kerak deb hisoblaydi.

2. *Ommaboplik nazariyasi (Commons Theory)*. Bu nazariya ma’lumotlarning, jumladan Big Dataning jamoaviy va ommaviy xususiyatini e’tirof etadi [3]. Ushbu nazariyaga ko’ra, ma’lumotlar umumiy baza bo’lib, hammaga foydalanishi va innovatsion faoliyatni amalga oshirishi uchun ochiq bo’lishi kerak. Ommaboplik nazariyasi tarafdorlari ma’lumotlar jamoat mulki hisoblanadigan va nafaqat mulk huquqi, balki jamoat manfaatlari bilan tartibga solinadigan modellarni ishlab chiqishga chaqiradilar.

3. *Foydalanuvchi egaligi nazariyasi (User Ownership Theory)*. Ushbu nazariya ma’lumotlardan foydalanuvchilar Big Datani yaratish va shakllantirishga hissa qo’shishi sababli ularning rolini e’tirof etadi [4]. Ushbu nazariyaga ko’ra, foydalanuvchilar o’zlari yaratgan yoki taqdim etgan ma’lumotlarga nisbatan ma’lum huquqlarga va nazoratga ega bo’ladi. Shunday qilib, ular o’z ma’lumotlarini nazorat qilishlari, foydalanishlari va ulardan foyda olishlari mumkin.

4. *Tartibga solish va o’z-o’zini tartibga solish nazariyasi (Regulation and Self-regulation Theory)*. Ushbu nazariya ma’lumotlar egalari, iste’molchilar, jamoatchilik va innovatsion faoliyat o’rtasida manfaatlar muvozanatini ta’minlash uchun samarali normativ hujjatlar va tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu nazariya doirasida ma’lumotlarni boshqarishda adolatlilik va samaradorlikni ta’minlay oladigan qonunchilik, standartlar, xulq-atvor kodekslari, o’zini o’zi tartibga soluvchi tashkilotlar va boshqa mexanizmlarni o’z ichiga oluvchi tartibga solishning turli shakllariga e’tibor beriladi [5].

Smit [6], Jonson [4] va Devis [7] kabi olimlarning tadqiqotlari Big Dataning biznes, ilm-fan, sog’liqni saqlash va huquqni muhofaza qilish kabi turli sohalaridagi ahamiyati va muhimligini tasdiqlaydi. Big Datadan samarali foydalanish sifatida epidemiyalarni boshqarish uchun tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilish [8], tendensiyalar va jamoatchilik fikri-

ni aniqlash uchun ijtimoiy tarmoq tahlili [9] hamda takliflar va xizmatlarni personallashtirish uchun mijozlar ma'lumotlaridan foydalanishni [10] misol qilib keltirish mumkin.

Ushbu nazariyalar doirasida kelgusida tadqiqot olib borish va to'xtamlar ishlab chiqishni talab etadigan bir qator muammo va masalalar yuzaga keladi. Shunday masalalardan biri Big Dataga bo'lgan mulkiy huquqlarni samarali tartibga soluvchi hamda barcha manfaatdor tomonlarning huquqlarini hisobga oluvchi yetarli huquqiy tizimni, yagona xalqaro tizimni ishlab chiqishdir. Shu bilan birgalikda, huquqiy mexanizmlarning dolzarbligi va samaradorligini ta'minlashda texnologiyaning jadal rivojlanishi va ma'lumotlarning doimiy o'zgarib turishi tabiatini hisobga olish ham muhimdir.

Big Dataga oid zamonaviy nazariyalar va konsepsiyalar ma'lumotlarning huquqiy maqomi va ularga bo'lgan mulkiy huquqlarga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu nazariyalar, konsepsiyalar va xalqaro hamda milliy instrumentlarni o'z ichiga olgan normativ hujjatlarning keyingi tahlili Big Dataga bo'lgan mulkiy huquqlarni qonuniy tartibga solish bo'yicha kengroq tushuncha hosil qiladi. Ushbu tahlil sohadagi zamonaviy tendensiyalar va muammolarni tushunishda hamda samarali yechimlar ishlab chiqishda muhim qadam hisoblanadi.

Big Dataning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy jihatlardan biri ma'lumotlarning moddiy qiymati hisoblanadi. Big Dataga bo'lgan mulkiy huquqlar bo'yicha ma'lumotlarning huquqiy maqomini belgilash va himoya qilishda moddiy qiymat muhim rol o'ynaydi. Big Dataning moddiy qiymatini tushunish va tan olish ushbu jihatni yoritib beradigan bir nechta nazariya va konsepsiyalarga asoslanadi.

Shunday nazariyalardan biri ma'lumotlarning iqtisodiy qiymati nazariyasidir. Ushbu nazariyaga ko'ra, Big Data – tijoriy daromad olishda foydalanish mumkin bo'lgan iqtisodiy jihatdan qimmatli aktivdir. Reklama, marketing, moliya va sog'liqni saqlash

kabi turli sohalarda faoliyat yuritadigan ko'plab kompaniyalar strategik qarorlar qabul qilishda va o'z faoliyatini optimallashtirishda ma'lumotlardan muvaffaqiyatli foydalanadilar [10]. Masalan, "Google" kompaniyasi reklamadan keladigan daromadlarni oshirishda qidiruv natijalari va reklamani personallashtirish uchun Big Datadan foydalana-di [11]. Bunday holda ma'lumotlar iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan va foyda olish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan aktivga aylanadi.

Yana bir muhim nazariya axborot mulki nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ma'lumotlar mulk huquqi obyekti sifatida qaraladi va ma'lum subyektlarning mulki bo'lishi mumkin [2]. Misol uchun, tashkilotlar o'zlari to'playdigan va yaratadigan ma'lumotlarga egalik va nazorat qilishlari hamda ulardan foydalanish va uzatishda mutlaq huquqlarga ega bo'lishlari mumkin. Bu ularga ma'lumotlarga kirish shartlarini aniqlash va undan tijorat maqsadlarida foydalanish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Big Dataga bo'lgan mulk huquqini aniqlashda moddiy qiymat nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy va jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda ham belgilanishi mumkin. Masalan, aholi salomatligi to'g'risidagi ma'lumotlar samarali sog'liqni saqlash tizimini ishlab chiqish va sog'liqni saqlash sohasida asoslangan qarorlar qabul qilishda foydalanilishi mumkin [12]. Demak, ma'lumotlarning moddiy qiymati ularning iqtisodiyot, jamiyat va inson farovonligiga potensial ta'siri orqali aniqlanishi mumkin.

Big Dataga bo'lgan mulk huquqining fundamental jihatlaridan biri ma'lumotlarga egalik qilishdir. Big Dataga egalik qilish egalik qiluvchiga ma'lumotlarni nazorat qilish, tasarruf etish, undan foydalanish natijasida iqtisodiy va ijtimoiy qiymat olish huquqini beradi. Big Dataga egalik qilish va ma'lumotlarga egalik qiluvchini aniqlash ma'lumotlarni to'playdigan va yaratadigan subyektlarga ham, ushbu ma'lumotlardan foydalanadigan

va qayta ishlaydigan subyektlarga ham taalluqli bo'lgan muhim masalalardir.

Big Dataga bo'lgan mulk huquqi bo'yicha ma'lumotlarga egalik huquqi kimga tegishli degan savol tug'iladi. Ma'lumotlarga egalik huquqini aniqlashda turli yondashuvlarni ilgari suruvchi bir qancha nazariya va konsepsiyalar mavjud.

Bunday nazariyalardan biri o'zlashtirish nazariyasi bo'lib, ushbu nazariya ma'lumotlarni to'plovchi yoki yaratuvchi subyektni ushbu ma'lumotlarning egasi sifatida e'tirof etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, Big Dataga egalik qilish uni to'plash va yaratishga hissa qo'shgan kishiga tegishlidir [13]. Misol uchun, katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish va ishlov berishga sarmoya kiritadigan tashkilotlar ushbu ma'lumotlarga egalik qilishni talab etishlari mumkin.

Bundan tashqari, Big Dataga egalik huquqini aniqlashda nazorat va kirish konsepsiyasi ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, Big Dataga egalik qilish ma'lumotlarga kirishni nazorat qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash huquqiga ega bo'lgan shaxslarga tegishlidir [14]. Misol uchun, Facebook va LinkedIn kabi ijtimoiy tarmoq platformalarida foydalanuvchilar bilan tuziladigan shartnomalarda ifodalanadigan ma'lumotlardan foydalanish qoida va shartlari belgilanadi. Bunday holda Big Dataga egalik qilish unga kirishni nazorat qiluvchi ushbu platformalarning o'zida bo'lib, Big Datadan tijorat maqsadlarida foydalanishi mumkin.

Biroq Big Dataga egalik masalasi murakkab va munozarali hisoblanadi. Ma'lumotlarning ahamiyati va jamiyatning turli tarmoqlariga ta'siri ortib borishi jarayonida egalikning nafaqat iqtisodiy tomoni, balki ma'lumotlardan foydalanishda jamiyat oldidagi hisobdorlik, shaxsiylik va axloqiy jihatlarini inobatga olish muhim sanaladi.

Big Dataga bo'lgan mulk huquqini belgilashda ma'lumotlarning huquqiy himoyasini hisobga olish muhim sanaladi. Ma'lumotlarning hajmi, xilma-xilligi va ishlov berish tez-

ligi kabi o'ziga xos xususiyatlari sababli Big Data huquqiy himoya sohasida yangi muammo va masalalarni vujudga keltiradi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Asosiy muammolardan biri ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, foydalanish va tarqatishdan himoya qilish hisoblanadi. Hujumchilar Big Dataga tijorat yoki jinoiy maqsadlarda noqonuniy kirishga urinishlari mumkin, bu esa ma'lumotlarning egalariga zarar yetkazishi va ularning mulkiy huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ma'lumotlarning huquqiy himoyasini ta'minlash uchun bunday huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo'yishga nisbatan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va choralar-tadbirlar zarur [15].

Ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlardan biri Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) hisoblanadi. ISO axborot xavfsizligini boshqarish tizimlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan ISO/IEC 27001 standarti kabi axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi standartlarni ishlab chiqadi va qo'llab-quvvatlaydi [16]. Ushbu standart Big Data huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan siyosat va tartiblarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ma'lumotlarni huquqiy himoya qilishni tartibga soluvchi milliy qonunlar mavjud. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida elektron aloqa va ma'lumotlarning shaxsiyligi va maxfiyligini himoya qilish bo'yicha qoidalar va talablarni belgilaydigan Elektron aloqalar maxfiyligi to'g'risidagi qonun (Electronic Communications Privacy Act) mavjud [17]. Yevropa Ittifoqida shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish va himoya qilish qoidalarini belgilaydigan umumiy ma'lumotlarni himoya qilish haqidagi reglament (General Data Protection Regulation, GDPR) kuchga kirgan [18]. Ushbu milliy qonunlar Big Datani huquqiy himoya qilishda katta ahamiyat kasb etib, ma'lumotlarga ishlov berish va foydalanish bo'yicha tomonlarning javobgarligini belgilaydi.

“Google”ning “Oracle America”ga qarshi sud ishi [19] Big Data huquqiy himoya qilish sohasida ahamiyatli sud qarori hisoblanadi. Bu sud ishida AQSh Oliy sudi dasturiy ta’minot va ilova dasturlash interfeysi (Application Programming Interface) ga nisbatan mualliflik huquqi masalasi yuzasidan qaror chiqardi. Ushbu sud qarori Big Data doirasida dasturiy ta’minot va unga aloqador ma’lumotlarga bo’lgan mulk huquqlarini tushunishda juda muhim hisoblanadi.

Facebook – “Cambridge Analytica” mojarosi (Facebook-Cambridge Analytica scandal) [20] Big Data huquqiy himoya qilish masalalari ko’tarilgan sud ishi hisoblanadi. Bu ishda “Cambridge Analytica” tomonidan Facebook foydalanuvchilarining shaxsiy ma’lumotlaridan ularning roziligisiz noqonuniy foydalanilgan. Ushbu holat ma’lumotlar egalarining mulkiy huquqlarining suiiste’mol qilinishi va buzilishining oldini olish uchun ma’lumotlarni himoya qilish va qat’iy tartibga solish zarurligini ko’rsatdi.

Big Dataga bo’lgan mulk huquqiga oid zamonaviy nazariyalar, konsepsiyalar va normativ huquqiy hujjatlar tahlili bizga ma’lum to’xtamlarga kelish imkonini beradi. Big Data doirasidagi ma’lumotlarni huquqiy himoya qilish ma’lumotlar egalarining mulkiy huquqlarini va ularning shaxsiyligini va maxfiyligini ta’minlashda muhim rol o’ynaydi. ISO kabi xalqaro tashkilotlar ma’lumotlar xavfsizligi va himoyasi bo’yicha standartlar va ko’rsatmalar ishlab chiqadi. Milliy qonunlar, shu jumladan, Yevropa kengashining umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) milliy darajadagi ma’lumotlarni himoya qilishning qonuniy asosi bo’lib xizmat qiladi. “Google”ning “Oracle America”ga qarshi ishi bo’yicha sud qarori dasturiy ta’minot va unga aloqador ma’lumotlarga bo’lgan mulkiy huquqlarni ifodalaydi. Facebook – “Cambridge Analytica” mojarosi ma’lumotlardan noqonuniy foydalanishning oldini olishda ma’lumotlarni himoya qilish va qat’iy tartibga solish muhim ekanligini isbotlaydi.

Big Data bo’lgan mulkiy huquqlarni o’tkazish ushbu sohadagi huquqiy tartibga solishning muhim jihati hisoblanadi. Big Data yaratilganda va qayta ishlanganda, ushbu ma’lumotlarga egalik qilish va huquqlarni o’tkazish masalasi paydo bo’ladi. Huquqlarni o’tkazish masalasi ham huquqiy, ham amaliy ahamiyat kasb etib, puxta tahlil va muhokama qilishni talab etadi.

Big Dataga bo’lgan mulkiy huquqlarni o’tkazish bo’yicha bir qancha yondashuvlar mavjud. Ulardan biri mulk huquqining an’anaviy prinsiplariga tayanadi. Ushbu yondashuvga ko’ra, Big Dataga bo’lgan huquqlar shartnomalar, litsenziyalar yoki savdo bitimlari orqali o’tkazilishi mumkin. Masalan, Big Datani to’plovchi va ishlov beruvchi kompaniya boshqa tomonlar bilan shartnomalar tuzish orqali ushbu ma’lumotlarga bo’lgan huquqlarni o’tkazishi mumkin.

Biroq Big Dataga bo’lgan mulkiy huquqlarni o’tkazish, ma’lumotlar hajmi kengligi va murakkabligi sababli qiyin kechishi mumkin. Ma’lumotlardan foydalanishdan manfaatdor bo’lishi mumkin bo’lgan tomonlarning ko’pligi bois Big Data doirasidagi huquqlarni o’tkazish chegaralari, foydalanish shartlari, ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog’liq cheklollar haqida savollar paydo bo’ladi.

Huquqlarning o’tkazilishi ma’lumotlar bozoridagi raqobatga va innovatsiyalarga ta’sir qilishi mumkin. Agar huquqlarning o’tkazilishi natijasida ma’lumotlar monopol hokimiyatning mulk obyektiga aylansa yoki ma’lumotlardan foydalanish cheklanadigan bo’lsa, iste’molchilar va umuman jamiyat uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli ma’lumotlar egalarining huquqlarini himoya qilish bilan innovatsiyalar, ma’lumotlarga kirishni qo’llab-quvvatlash o’rtasida muvozanatni saqlash lozim.

Big Dataga bo’lgan mulkiy huquqlarni o’tkazishga oid zamonaviy nazariyalar, konsepsiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili barcha manfaatdor tomonlarning huquqlarini inobatga olgan holda huquqlar o’tkazilishini

ta'minlashning aniq va muvozanatli huquqiy mexanizmlarini, yagona xalqaro tizimni, ishlab chiqish muhimligini talab etadi.

Big Dataga bo'lgan mulkiy huquqlarni o'tkazishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga misol sifatida Android ilovalarida Java ilova dasturlash interfeysi (Application Programming Interface)dan foydalanish masalasi ko'rib chiqilgan "Google" "Oracle America, Inc." [21] ga qarshi sud ishini keltirish mumkin. Ushbu ish bo'yicha chiqarilgan qaror dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda ma'lumotlardan foydalanish va o'tkazish masalalarida muhim xulosalarga olib keldi.

Xalqaro va milliy tendensiyalar Big Dataga bo'lgan mulkiy huquqlarni qonuniy tartibga solishda shaffoflik, raqobat va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni ta'minlash muhim ekanligini ko'rsatadi. Xususan, Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish haqidagi reglamenti (General Data Protection Regulation) [22] shaxsiy ma'lumotlarni, jumladan, Big Data doirasidagi ma'lumotlarga ishlov berish va o'tkazish qoidalarini belgilaydi. Ushbu reglament ma'lumotlar subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qat'iy tartibga solish bo'yicha namuna bo'lib xizmat qiladi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar milliy ehtiyoj va maqsadlardan kelib chiqib, Big Dataga bo'lgan mulkiy huquqlarni o'tkazishni ta'minlashga qaratilgan milliy miqyosdagi qonunlarni qabul qilmoqda, strategiyalarni ishlab chiqmoqda. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida raqamli muhitda mualliflik huquqidan foydalanish va o'tkazishni tartibga soluvchi Raqamli ming yillik mualliflik huquqi (Digital Millennium Copyright Act) qonunini amalga kiritgan.

Big Dataga bo'lgan mulkiy huquqlarni o'tkazish murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqishni va tahlil qilishni talab etadi. Zamonaviy nazariyalar, konsepsiyalar va normativ-huquqiy hujjatlar ma'lumotlar egalari, iste'molchilar va umuman jamiyatning xilma-xil talab va

ehtiyojlaridan kelib chiqib, turli yondashuvlar va yechimlarni taklif qiladi. Zero, adolat, shaffoflik va jamoatchilik manfaatlarini hisobga olish kabi prinsiplarga muvofiq bo'lgan Big Dataga oid huquqlarning o'tkazilishini ta'minlaydigan muvozanatli huquqiy mexanizmlarni yaratish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida Big Data maqomi Konstitutsiyaning 65-moddasida mulkchilik shakllarining xilma-xilligi va barcha mulk shakllarining teng huquqliligini qayd etuvchi qoidalar asosida belgilanadi. Bu qoidalar prinsipial ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston davlat mulki hukmronligidan voz kechib, mamlakat iqtisodiyotida mulkchilikning turli shakllarini o'zlashtirganidan dalolat beradi.

Demak, O'zbekistonda Big Dataga nisbatan xususiy va davlat mulk shakllari mavjud. Xususiy mulk qonun hujjatlariga muvofiq Big Dataga egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi mumkin bo'lgan jismoniy yoki tijorat tashkilotlariga tegishli. Ommaviy mulk esa belgilangan qonun-qoidalarga muvofiq Big Dataga egalik qilishi va foydalaniishi mumkin bo'lgan davlat mulki yoki jamoat tashkilotlarining mulki sanaladi.

O'zbekistonda Big Data maqomi nafaqat konstitutsiyaviy normalar, balki boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan ham belgilanadi. Fuqarolik kodeksi mulkchilik shakllarining xilma-xilligini batafsil tushuntiradi va qabul qilingan huquqiy normalar tizimiga muvofiq Big Data mulkdorlarining huquq va majburiyatlarini mustahkamlaydi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, raqamli dunyoning rivojlanishi va yangi texnologiyalar paydo bo'lishi Big Data huquqiy maqomi, huquqiy tabiatini doimiy tadqiq etishni talab etadi. Ko'p tarmoqli yondashuvlarni qo'llab, moslashuvchan huquqiy bazalarni ishlab chiqish

orqali shiddatli davrda barchaning manfaatlari muvozanatini ta'minlaydigan, shu bilan birga, innovatsiya va raqamli texnologiyalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan huquqiy zamin shakllantirish lozim sanala-

di. Bunda Big Data huquqiy maqomi va unga bo'lgan mulkiy huquqlarni samarali muhofaza qilish va tartibga solishni ta'minlaydigan yagona xalqaro tizimni ishlab chiqish juda ham muhimdir.

REFERENCES

1. Lynch C. Big Data: How Do Your Data Grow? *Nature*, 2008, vol. 455, pp. 28–29.
2. Pasquale, F. A. The black box society: The secret algorithms that control money and information. Harvard University Press, 2018.
3. Van Dijck, J., Poell, T., & de Waal, M. (Eds.). (2018). The Platform Society: Public Values in a Connective World. Oxford University Press.
4. Johnson, R., The Propertization of Data. *Yale Journal of Law & Technology*, 2016, 19(2), 353-402.
5. Mayer-Schönberger V., Cukier K. Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think. Houghton Mifflin Harcourt, 2013.
6. Smith A. Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think. W. W. Norton & Company, 2017.
7. Davis J.L. Data as Property: A Comprehensive Approach. *Brooklyn Law Review*, 2013, no. 78 (4), pp. 1087–1156.
8. Lazer D., Kennedy R., King G., Vespignani A. The Parable of Google Flu: Traps in Big Data Analysis. *Science*, 2014, vol. 343 (6176), pp. 1203–1205.
9. Tufekci Z. Big Questions for Social Media Big Data: Representativeness, Validity and Other Methodological Pitfalls. *ICWSM*, 2014, vol. 14 (7), pp. 505–514.
10. Davenport T.H., Harris J.G. Competing on Analytics: The New Science of Winning. Harvard Business School Press, 2017.
11. Manyika J., Chui M., Brown B., Bughin J., Dobbs R., Roxburgh C., Byers A.H. Big Data: The next frontier for innovation, competition, and productivity. McKinsey Global Institute, 2011.
12. Acquisti A., Grossklags J. Privacy and rationality in individual decision making. *IEEE Security & Privacy*, 2005, vol. 3 (1), pp. 26–33.
13. Davenport T.H., Patil D.J. Data scientist: The sexiest job of the 21st century. *Harvard Business Review*, 2012, vol. 90 (10), pp. 70–76.
14. Mayer-Schönberger V., Ramge T. Reinventing capitalism in the age of Big Data. Basic Books, 2018.
15. Van Dijck J. Datafication, dataism and dataveillance: Big Data between scientific paradigm and ideology. *Surveillance & Society*, 2014, vol. 12 (2), pp. 197–208.
16. Johnson D., Post D. Law and borders: The rise of law in cyberspace. *Stanford Law Review*, 2017, vol. 66 (1), pp. 67–73.
17. International Organization for Standardization. ISO/IEC 27001:2013 Information technology – Security techniques – Information security management systems – Requirements. 2020.
18. Electronic Communications Privacy Act, 18 U.S.C. § 2510–2522. 1978.
19. General Data Protection Regulation, Regulation (EU) 2016/679. 2016.
19. Google LLC v. Oracle America, Inc., 593 U.S. 2021.
20. Facebook-Cambridge Analytica scandal: What you need to know. 2018. BBC News.
21. Smith K.J. The Property Rights in Personal Data. *Cambridge Law Journal*, 2019, vol. 78 (3), pp. 467–493.
22. Frischmann B.M., Madison M.J., Strandburg K.J. Governing knowledge commons. Oxford University Press, 2014.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 3-son

VOLUME 7 / ISSUE 3 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.3.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, E. Mustafojev

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 27.09.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 17,3 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 71.

TDYU tipografiyasida chop etildi.